

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

SOCIAL MEANING IN THE HARMONY OF NATURE AND HUMAN IN THE POETRY OF XURSHID DAVRON

Boboqand Umarov*Independent Researcher at Navoi State University**Navoi, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Nature, human, harmony, social meaning, ecological thinking, Khurshid Davron, symbolism, philosophy.

Received: 16.10.25**Accepted:** 17.10.25**Published:** 18.10.25

Abstract: The article investigates the social and philosophical meanings of nature in Khurshid Davron's poetry. Through the analysis of works such as "Qadrdon Quyosh", "Shahardaghi Olma Daraxti", and "Tungi Bog'lar", the research highlights how the poet represents nature as a reflection of human morality and social harmony. Symbols like trees, wind, sunlight, and mint serve as metaphors for conscience, purity, and renewal. Khurshid Davron's ecological and spiritual imagery reveals his belief in the unity of man and nature as the foundation of moral balance. To interpret the harmony between nature and human as a philosophical model of social unity. Davron transforms natural imagery into a moral system, linking ecological awareness with humanistic values.

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA TABIAT VA INSON UYG'UNLIGIDA IJTIMOIY MA'NO

Boboqand Umarov*Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Navoiy, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Tabiat, inson, uyg'unlik, ijtimoiy ma'no, ekologik tafakkur, Xurshid Davron, ramz, falsafa.

Annotatsiya: Maqolada Xurshid Davron she'riyatida tabiat obrazlari orqali inson ruhiyati va jamiyat muammolarining ifodalanish usullari tahlil etilgan. "Qadrdon quyosh", "Shahardaghi olma daraxti", "Tungi bog'lar" asarlaridagi tabiat va inson uyg'unligi, daraxt, shamol, quyosh, yalpiz singari ramzlar orqali ijtimoiy-falsafiy ma'nolar ochib beriladi. Tadqiqotda shoirning

“Daraxt”, “Erib ketar xira tumanlar”, “Haqiqat”, “Bolalik haqida she’r” kabi asarlarida tabiat inson vijdoni, jamiyatning axloqiy ko‘zgusi sifatida talqin etilgan. Shoir poetikasida tabiatni ijtimoiy uyg‘unlik modeli sifatida tahlil qilish maqsad qilingan. Xurshid Davron tabiat orqali jamiyatdagi ma’naviy muvozanatni ifoda etib, ekologik-falsafiy tafakkur asoslarini yaratgan.

СОЦИАЛЬНЫЙ СМЫСЛ В ГАРМОНИИ ПРИРОДЫ И ЧЕЛОВЕКА В ПОЭЗИИ ХУРШИДА ДАВРОНА

Бобоканд Умаров

Независимый исследователь

Навоийского государственного университета

Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Природа, человек, гармония, социальный смысл, экологическое мышление, Хуршид Даврон, символ, философия.

Аннотация: В статье анализируются способы выражения человеческой психики и общественных проблем через образы природы в поэзии Хуршида Даврона. Социально-философские смыслы раскрываются через символы гармонии природы и человека, дерева, ветра, солнца, мяты в произведениях "Дорогое солнце," "Яблоня в городе," "Ночные сады." В исследовании рассматриваются такие произведения поэта, как "Дерево," "Растают мутные туманы," "Истина," "Стихотворение о детстве," где природа интерпретируется как совесть человека, нравственное зеркало общества. Целью является анализ природы в поэтике автора как модели социальной гармонии. Хуршид Даврон создал основы эколого-философского мышления, выражая духовное равновесие в обществе через природу.

Kirish. Xurshid Davron ijodi XX asr oxiri o‘zbek she’riyatining eng muhim badiiy hodisalaridan biridir. Uning poetik dunyosida tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ruhiy aloqalar o‘ziga xos lirizm bilan ifodalanadi. Shoir tabiat manzaralarini tasvirlar ekan, ularni shunchaki estetik fon sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy anglash vositasi sifatida talqin etadi. “Qadr don quyosh”, “Shahardagi olma daraxti” va “Tungi bog‘lar” to‘plamlarida tabiat insonning ruhiy holatini, ijtimoiy iztirobini, ma’naviy uyg‘onishini ifodalovchi metaforik sistemaga aylanadi. Bu maqola shoir she’riyatidagi tabiat timsollari orqali jamiyat, inson va zamon haqidagi ijtimoiy mazmunni tahlil etishga bag‘ishlanadi.

Shoir tabiatni hech qachon insondan ajratmaydi. U uchun daraxt, shamol, oy, quyosh, yalpiz, qush — bular jamiyatdagi insonlarning his-tuyg'ularini ifodalovchi badiiy belgilar tizimidir. "Qadrdon quyosh"dagi she'rlar orqali shoir "tabiatdagi uyg'unlik yo'qolganda, insondagi uyg'unlik ham yo'qoladi" degan g'oyani ilgari suradi. "Yalpiz" she'rida u yozadi:

Yalpizlarni quchoqlab sarxush,
Muhabbatga chulg'anar qalbim...
Daraxt kulgusini ko'rganman,
Ko'rganman ko'z yoshlarini ham.

Bu satrlarda tabiat – inson holatining o'zidir. Daraxtning "kulgusi" quvonch, "ko'z yoshi" esa ijtimoiy og'riqdir. Tabiat insoniy hislar bilan yashaydi, inson esa tabiatdagi iztirobni his qiladi. Bu – antropomorfik usul orqali ijtimoiy mazmunni falsafiyashtirishdir. Shoir bu to'plamda tabiat obrazlarini ijtimoiy uyg'onish ramziga aylantiradi. Urushdan keyingi jamiyatda ezilgan ruhiyat, yo'qotilgan poklik va soddalikni u tabiat manzaralarida tiklaydi. "O'layotgan otning qorachig'ida" she'rida ot insoniyatning fojiasi, uning ko'zidagi "yalpiz" tinchlikning umididir:

O'layotgan otning qorachig'ida
Chayqaladi shudringli yalpiz...

Yalpiz - hayotning davomiyligi, tabiiylik va insoniylikning sinonimi. Bu obraz Xurshid Davron she'riyatida ijtimoiy yangilanish timsoliga aylanadi.

"Men ertaga juda erta turib ketaman" she'rida ham insonning "ketish" harakati tabiat uyg'onishi bilan uyg'unlashtiriladi. Bu harakat — yangi tong, yangi hayot, yangi ruhiy davr ramzidir.

Shoirning "Bolaligim o'g'irlab sekin..." she'rida esa insoniyatning tabiatdan uzoqlashishi og'riq sifatida ifodalanadi. Bola obrazidagi beg'uborlik tabiat bilan uyg'unlikdir; uni yo'qotish — ijtimoiy begonalikning boshlanishi.

Bu to'plamda shoir shaharni jamiyatning sun'iy muhitiga o'xshatadi, olma daraxti esa — tabiat, hayot, tabiiy hislarning so'nggi vakilidir. To'plamning nomi ham ramziy: "Shahardagi olma daraxti" – tabiiylikning sun'iylik ichida yashab qolgan so'nggi nafasi.

"Qiz va shamol haqida ertak" she'rida shamol va qizning muhabbati orqali insoniy orzularning ijtimoiy to'siqlarga urilishi tasvirlanadi:

Qayrag'ochga ko'ksini bosib,
To'lib-to'lib yig'laydi shamol.

Shamol yig'laydi — bu erkinlik yig'isidir. Shamol — ozodlik, daraxt — jamiyat, qiz — inson qalbi. Ularning o'zaro aloqasi – inson va jamiyat o'rtasidagi bo'g'ilib qolgan muloqotdir.

Shuningdek, “Eshiklar to‘satdan bir quchoq nurni...” she‘rida shoir shaharni tungi manzarada tasvirlar ekan, “nur”ni ozodlik, “eshik”ni jamiyatdagi to‘siq sifatida ishlatadi. Bu ramzlar orqasida shoirning insonni tabiat erkinligiga chaqiruvchi falsafasi turadi.

“Tungi bog‘lar” to‘plami – Xurshid Davron poetikasining falsafiy cho‘qqisidir. Unda tabiat ijtimoiy mazmundan chiqib, ruhiy holat va falsafiy obraz darajasiga ko‘tariladi. Tabiat endi tashqi manzara emas, balki inson ruhining ichki bog‘laridir. “Daraxt” she‘rida inson va daraxt o‘rtasidagi ruhiy uyg‘unlik ochiladi:

U quyoshni birinchi ko‘rar,
Va bag‘riga yashirar tunni.
U o‘zini olovga berar,
Odamlarga berar olovni.

Daraxt — insonlikning timsoli: u quyoshni (haqiqatni) ko‘radi, tunda (zulmatda) yashaydi, ammo boshqalarni isitish uchun yonadi. Bu insonning ijtimoiy mas‘uliyati, fidoyiligi va ma‘naviy missiyasi bilan bog‘liq.

“Erib ketar xira tumanlar” she‘rida esa tong manzarasi jamiyatning ruhiy uyg‘onish ramziga aylanadi:

Erib ketar xira tumanlar,
Kapalakdek uyg‘onar yalpiz...

Tuman – johillik va ruhiy sovuqlik; yalpiz — yangilanish, poklanish, uyg‘onish. Tabiatning bu jarayoni — jamiyatning yangilanish modeli sifatida talqin qilinadi. Shoir poetikasida tabiat obrazlari ijtimoiy ramzga ega bo‘lib, ular inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib beradi. Quyida asosiy obrazlar tizimi ko‘rsatiladi: Quyosh - haqiqat, hayot manbai, inson vijdoni. Oy - xotira, iztirob, ruhiy yolg‘izlik. Yalpiz, maysa - poklik, uyg‘onish, hayotning tabiiy oqimi. Daraxt - insoniyat, ildiz — tarix; shox — kelajak. Shamol - ozodlik, isyon, ruhiy to‘lqin. Olma daraxti - insoniylik va mehr ramzi; shahar fonida — tabiiylikning so‘nggi belgisi. Tun - ruhiy iztirob, sukunat, jamiyatdagi jim faryod. Qush -so‘z, ijod, ozodlik. Bu obrazlar orqali shoir jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ekologik-falsafiy ifoda bilan yoritadi: tabiatni asrash — bu insoniylikni asrash demakdir.

Xurshid Davron she‘riyatida tabiat faqat estetik obyekt emas, balki ijtimoiy muvozanatning belgisidir. Inson tabiatdan uzoqlashgan sayin, jamiyat ma‘naviy inqirozga yuz tutadi. Shoir “Haqiqat” she‘rida yozadi:

Qancha o‘ramasin ko‘ngli qoralar
Baland devor bilan yozning bog‘ini,
Bari bir bag‘ri keng, saxiy olmalar
Ko‘chaga uzatar shig‘il shoxini.

Bu satrlar ijtimoiy-ma'naviy xulosadir: devorlar (jamiyatdagi to'siqlar, siyosiy cheklovlar) tabiatni to'sa olmaydi, chunki hayot (olma daraxti) baribir odamga yetadi. Bu ozodlik falsafasining poetik ifodasidir.

Shoir tabiatni ko'rgan har bir daqiqasida insoniy mas'uliyatni his qiladi. "Dala kezib..." she'rida:

Qandaydir bir sirli hayajon
Yuragimni titratdi shu on.
Urilardi dimog'ga bir is –
Quloq solsam, kuylardi yalpiz...

Bu satrlar oddiy estetik hol emas – insonning tabiatni eshitish qobiliyati yo'qolib borayotganini anglashidir. Shoir "yalpiz kuyini eshitgan" inson, lekin jamiyat bu kuyga kar. Shu orqali u ijtimoiy ogohlantiruv beradi: inson yuragi tabiatdan uzilsa, u o'z mohiyatini yo'qotadi.

Davron poetikasining markaziy g'oyasi — sukunatdagi harakat. Tabiatning jim manzaralari aslida jamiyatdagi tinimsiz iztirobni bildiradi. "Tun shunday zim-ziyo" she'rida:

Tun shunday Sokinki –
Eshitilar Quyosh nafasi.

Bu satrda "tunning sukunati" ichidan "quyosh nafasining eshitalishi" — bu umid, hayotning davomiyligi. Shoir uchun tabiat sukunatining o'zi — ijtimoiy hayotning eng chuqur harakati. Xurshid Davronning ijtimoiy-falsafiy qarashlari inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikda mujassam. Inson tabiatga mehr bilan qarasa, jamiyatda tinchlik bo'ladi; inson tabiatni ezsa, jamiyat ham ruhiy inqirozga yuz tutadi.

"Bolalik haqida she'r"da shoir tabiatni bolalik bilan bog'laydi — bu jamiyatning eng pok davridir. Ammo "bugun onamning oppoq sochlariga boqib qo'rqaman" degan satr — poklikdan qo'rquv davrini bildiradi. Bu ijtimoiy metafora: inson tabiatdan, ya'ni o'z ildizidan qo'rqadi.

Xurshid Davronning tabiat haqidagi she'rlari inson va jamiyat o'rtasidagi axloqiy bog'liqlikni ifodalaydi. Shoir tabiatni estetik obyekt emas, balki ijtimoiy vijdonning timsoli sifatida ko'radi. Daraxt, shamol, quyosh, olma, tun, yalpiz singari obrazlar inson ruhiyatining badiiy kodiga aylanadi. Shoir tabiat orqali jamiyatning ichki muvozanatini, insonning ma'naviy yangilanish jarayonini ko'rsatadi. Shu tariqa, u o'zbek adabiyotida ekologik-falsafiy poetika asoschisi sifatida yangi yo'nalishni shakllantirgan.

Xurshid Davron she'riyatida tabiat – bu insoniyatning o'zini ko'rish oynasidir. Tabiatdagi har bir o'zgarish, shoir nigohida, jamiyatdagi ruhiy o'zgarish bilan chambarchas bog'liq. U tabiatni asrashni emas, tabiatga qaytishni targ'ib qiladi. Chunki tabiatga qaytish — bu insoniylikka, samimiyatga, ijtimoiy uyg'unlikka qaytishdir. Shoirning quyidagi satrlari uning butun falsafasini ifodalaydi:

Har kimning ham bo'lsin osmoni,
O't gullari bo'lsin qalbining.
Erkday ulug' O'zbekistoni,
Cheksizligi bo'lsin har kimning... .

Bu "osmon" — ruhiy erkinlik, "o't gullari" — ijodiy yondashuv, "cheksizlik" — insoniy imkoniyatlar ramzidir. U tabiat timsollari orqali insonni ijtimoiy ozodlikka, ruhiy uyg'onishga da'vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хуршид Даврон. Қадрдон қуёш. Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
2. Хуршид Даврон. Шаҳардағй олма дарахти. Т.: Ёш гвардия, 1980.
3. Хуршид Даврон. Тунги боғлар. Т.: Ёш гвардия, 1981.
4. Абдуллаева, Д. XX аср ўзбек шеърлятида инсон ва табиат муносабати. Т., 1992.